

7-мавзу. Назорат саволлари

1. Tekis shakl yuzi og'irlik markazining koordinatalari qanday formulalar yordamida topiladi?
2. O'zaro tik ikki o'qqa nisbatan inertsiya momentlarining yig'indisi nimaga teng?
3. Qanday o'qlar bosh o'qlar deyiladi?
4. SHakllarning qanday markaziy o'qlari bosh o'qlar deyiladi?
5. SHakllarning inertsiya momentlari qanday o'qlarga nisbatan eng katta va eng kichik qiymatlarga ega bo'ladi?
6. Uchburchakning o'z asosi orqali o'tadigan o'qqa nisbatan inertsiya momenti nimaga teng?
7. Tekis shakllarning markaziy o'qlariga nisbatan statik momentlari nimaga teng?
8. Statik moment va inertsiya momentlar qanday o'lchovlarda ifodalanadi?
9. Qanday inertsiya momentlari manfiy qiymatga ham ega bo'ladi?
10. Ekvatorial va markazdan qochirma inertsiya momentlari parallel o'qlarga nisbatan qanday formulalar yordamida ko'chiriladi?

8-мавзу. Назорат саволлари

1. Burovchi moment bilan val uzatadigan quvvat va aylanish sonlari orasida qanday bog'lanish bor?
2. Silindrik sterjenlarning buralishida qanday cheklanishlarga yo'l qo'yiladi?
3. Qanday burchak to'la buralish burchagi deb ataladi?
4. Polyar inertsiya momenti nima va u qanday o'lchamlikka ega?
5. Qanday miqdor buralishdagi bikrlilik deyiladi?
6. Val buralganda uning kaysi nuqtasida eng katta kuchlanish hosil bo'ladi?
7. Val deganda nimani tushiniladi?
8. Buralish nima?
9. Burovchi moment nima?
10. Buralishdagi mustahkamlik shart qanday yoziladi?
11. Buralishdagi asosiy tushunchalar nima ?

9-мавзу. Назорат саволлари

1. Qanday kuchlanish holati sof siljish deyiladi.
2. Siljishdagi GUK qonuni va ikkinchi tartibli Yung moduli qanday ifodalanadi.
3. Siljishdagi ruhsat etilgan kuchlanish bilan cho'zilishi.
4. Siljishdagi ruhsat etilgan kuchlanishlar orasida qanday bog'lanish bor.
5. Siljishdagi potentsial energiya qanday topiladi.
6. Sof siljishdagi solishtirma potentsial energiya.
7. Siljish deformatsiya.
8. Nisbiy cho'zilish.
9. Mustahkamlik nazariyalari.
10. Siljish burchagi.
11. Sof siljishdagi hisoblash tenglamalari.

12. Siljishdagi mustahkamlik sharti qanday ko'rinishga ega va uning yordamida qanday masalalarni hal qilish mumkin?

10-мавзу. Назорат саволлари

1. To'sin deb nimaga aytiladi?
2. Qanday holda tekis egilish sodir bo'ladi?
3. To'sin tayanchlarining turlari qanday bo'ladi?
4. Qo'zgaluvchan tayanchda nechta reaksiya kuch hosil bo'ladi?
5. Qo'zgalmas tayanchda nechta reaksiya kuch hosil bo'ladi?
6. Qistirib maxkamlangan tayanchda nechta reaksiya kuch hosil bo'ladi?
7. Qanday xolda to'sin statik aniq yoki statik aniqmas bo'ladi?
8. Bo'ylama kuch nima?
9. Ko'ndalang kuch nima?
10. Eguvchi moment nima?
11. N_x , Q_x va M_x epyuralari yordamida qanday muammolar hal qilinadi?
12. N_x , Q_x va M_x lar orasidagi differentsial bog'lanishlar yordamida epyuralar qanday tekshiriladi?

11-мавзу. Назорат саволлари

1. Ichki kuch omillari.
2. Tekis egilishda kundalang kesim yuzasida normal kuchlanishlarning taqsimlanish qonuni. Kuchlanishlarni hisoblash.
3. Turli xil ko'rinishdagi ko'ndalang kesim uchun neytral o'q holatini aniqlash.
4. Spiral prujina nima?
5. Prujinalarning bikrligi nima?
6. Prujinalarning mustahkamligi nima?
7. Cho'zilish, siqilish va buralishga ishlaydigan tsilindrik prujinalarni ayting.

12-мавзу. Назорат саволлари

1. Statik noaniq masalalar deb nimaga aytiladi?
2. Deformatsiya larni solishtirish usuli va deformatsiya tenglamalari qanday tuziladi.
3. Tutash balkalar deb qanday balkalarga aytiladi?
4. Uch moment tenglamasi qanday tenglama va u qanday yoziladi?
5. To'sinning salqiligi nechaga teng.
6. To'sinlar deb nimaga aytiladi.
7. Statikaning muvozanat shartlari.
8. Ortiqcha noma'lum nimaga aytiladi.
9. Statik noaniq to'sinlarni TEKSHIRISH qoidalari.
10. Tutash to'sinlarning tayanch reaksiyalari.

13-мавзу. Назорат саволлари

1. Ustivorlik nima?
2. Muvozanatning ustivor va noustivor shakllari haqida tushunchani gapiring.
3. Kritik kuch nima?
4. Siqilgan sterjenlarning ustivorligi nima?
5. Eyler formulasi va undan foydalanish chegarasini yozing.

14-мавзу. Назорат саволлари

1. Toliqish hodisasi qanday tushuntiriladi?
2. Kuchlanish tsikli deb nimaga aytiladi?
3. O'rtacha maksimal va minimal kuchlanishlar deb nimalarga aytiladi?
4. Kuchlanish amplitudasi deb nimaga aytiladi?
5. TSikl koeffitsienti deb nimaga aytiladi?
6. Simmetrik va asimmetrik tsikllarning farqi nimada?
7. Qanday tsikllarga o'xshash tsikllar deyiladi?
8. Toliqish chegarasi nima? Toliqish mustaokamligiga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlarni ayting.
9. CHidamlilik ehtiyot koeffitsienti nima?